

“ALPOMISH” DOSTONI MATNI VA INGLIZCHA TARJIMASIDAGI FITONIMIK LEKSEMALARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Annotatsiya: Maqolada Alpomish turkumidagi dostonlarda fitonomik leksema, “Alpomish” dostoning sinekdoxa Alpomish turkumidagi dostonlar va ular haqida ma’lumotlar, takliflar berilgan.

Kalit so’zlar: dialektizm, fonetika, Leksik-fonetik, ma’naviy, g’azallar, sinekdoxa.

“Alpomish”- qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatan’arvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqazosi bilan bo’linib ketgan qadimiy bir o’zbek urug’ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g’oyalari, uning qahramonona shon-shuxrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. “Alpomish” – o’zbekning o’zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlaridan avlodlarga o’tkazib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir... “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi.

«Alpomish» dostonida xalqimizning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg’usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda yorga erishish uchun mard bo’lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g’oya bo’rtib turadi:

Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,
Bor kuchimni bilagimga jiyaman,
Olmos olsam, qirmizi qon quyaman,
G’animlarning tanasini uyaman,
Qarchig’ayman, dushman boshin qiyaman.
Esim olsa, bo’tadayin bo’zlayman,

Dushman ko’rsam, kesib bag’rin tuzlayman, Aslim sherman, o’zim yo’lbars izlayman. Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug’lash, mardlik tuyg’ulari vatanparvarlik ideyasi bilan uzviy bog’langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o’n olti urug’ qo’ng’irot eli, Boysun-qo’ng’irot diyori bilan mahkam bog’langandir. Ular qayerda bo’lmasinlar, shu el, shu diyorning g’am-alamiga sherik bo’ladilar, shu el, shu diyor sog’inchi bilan yashaydilar. Doston qahramonlarining o’z qabilasi, xalqi va yurtiga bo’lgan vatanparvarlik hislari tasvirlangan. Bu hissiyot qahramonning tutqunlik davrida g’oz orqali vataniga salom yo’llashida; Barchin, Qaldirg’och, Yodgorlarning hijron alamlari tasvirida, qahramonning yo’ldagi uchrashuvlari epizodlarida yanada yorqin aks etgan. Umr bo’yi tug’ilib o’sgan yurtini, xalqini sevgan Alpomishdagi bu hissiyot yetti yillik asirlikdan keyin ona tuproqqa qadam qo’yganda yanada yuqori nuqtaga ko’tariladi, vatani, eli haqida turli xayollarga boradi:

Asqar tog’i tumanmikan,
Men bilmayman bu yo’llarda,
Ota-enam omonmikan,
Ko’rganim yo’q qo’ng’irot eli,
Qadimgiday zamonmikan?..
Toqqa chiqib Shunday qarab turibdi,
Yoylab yotgan Boysun yurtin ko’ribdi.
Elatini ko’rib ko’ngli buzildi,
Ko’zdan yoshi munchoq-munchoq tizildi.

Dostonda elu yurtga muhabbat motivlari urug’ birligi g’oyasi bilan birlashib ketadi. Ajralish qabila a’zolari boshiga og’ir kulfatlar keltiradi. Barchin, qaldirg’och, hatto Boysarining o’zi ham o’zga mamlakatda xor-zor bo’lishlarini takror-takror aytadilar. Dostonning har ikkala qismida ham Alpomishning Barchinga uylanishi qo’ng’irot urug’ining yangidan birlashishiga olib keladi, Demak, Alpomishning nikoh uchun, oila uchun—“O’z uyi” uchun kurashi qonuniy ravishda qo’ng’irot

urug'ining yanada mustahkamlanishi, yangi tipda qaytadan birlashishi uchun kurashi hamdir. Dostonda bu kurash qahramonlik va mardlik, insonparvarlik va hurlik, vatanga va xalqqa muhabbat, turli elatlar hamda qabilalarning insoniy huquq uchun kurashda do'stligi va hamkorligi g'oyalari bilan uzviy bog'liq ravishda tasvirlanadi.

“Alpomish” dostonidagi stilistik vositalar tarjimasini masalalari va ularning sintaktik-semantik tadqiqi deb nomlanib, “Alpomish” dostonidagi stilistik vositalarni tarjima qilish muammolari” nomli birinchi faslda dostonda eng ko'p qo'llanilgan metafora, o'xshatish, sinekdoxa, qiyoslash, mubolag'a kabi funksional stilistik vositalarning asliyat va tarjima matnida o'zaro uyg'unligi chog'ishtirib o'rganilgan. “Alpomish” dostonida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalaridan biri – bu sinekdoxa hisoblanadi. Sinekdoxa yunoncha “synecdoche” so'zidan olingan bo'lib, “munosabatdoshlik”, “o'zaro bog'lanish” ma'nolarini bildiradi. U metonimiyaning bir ko'rinishi bo'lib, butun (katta) narsaning nomini uning qismi (kichik) nomi bilan yoki aksincha atashdan iborat ko'chim turi¹³. Sinekdoxaning asosan ikki xil ko'rinishi mavjud: 1)Butun (katta) orqali qismni (kichik) yoki aksincha qism (kichik) orqali butunni (katta) tushunish; 2)Birlilik orqali ko'plikni tushunish. Sinekdoxaning birinchi turiga quyidagi parchani misol qilib olsak bo'ladi:

Asliyat: “Senday sarson bo'p yurmasman,
O'lmasam omon bermasman,
Olmay o'zbekni qo'yimasman,
Askarimni qaytarmasman”

Bu parcha Qorajonning Qalmoq bahodirlarini Alpomish bilan jangga kirmaslik haqidagi ogohlantirishiga javoban Qalmoq alplari nutqidan olingan. “Askarimni qaytarmasman” misrasidagi “askarimni” so'zi qo'shinni tashkil etuvchi askar so'zi orqali butun boshli qo'shin nazarda tutilgan. Quyida sinekdoxa tarjima tiliga qay tarzda o'girilganini ko'rib chiqamiz:

Tarjima: “Like you I'll not wander,
Till I die I'll not give peace,
I'll fight till I defeat Uzbeks,
I'll not call back my troops”

Asliyatdagi “askarimni” so'zi tarjima tiliga “my troops” shaklida o'girilganini ko'rishimiz mumkin. Sh.Butayevning “English-Uzbek Dictionary” lug'atida “troop” so'zi qo'shin, lashkar deb tarjima qilinadi. Ko'rinib turibdiki, tarjimon asliyat matnidagi sinekdoxani ko'chma ma'noda emas, o'z ma'nosida tarjima qilgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, milliy eposimiz “Alpomish” matnini o'rganish va tadqiq qilish fonetik hodisalar dialektal so'z turlarining xususiyatlarini ta'minlovchi omil ekanligini ko'rsatdi deyish mumkin. Turli fonetik hodisalar ham hududiy-mahalliy xususiyatdir. “Har bir xalq o'z mahalliy shevalarida muloqat yuritadi, binobarin, xalq o'z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig'ini, moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifoda qiladi...” Xalqning butun borlig'ini, moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifodalashda fonetik hodisalar bilan bog'liq leksik-fonetik dialektal so'zlar ham muhim deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abdurahmonov G'. tahriri ostida. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1966.
- 2.Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent:, “Nodirbegim” nashriyoti, 2021. 170.
- 3.To'ychiev B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent:, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001.160 b.
- 4.Doniyorov X, Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy til. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 1988.
- 5.Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent:, Fan nashri